



## BIRLAMCHI BO‘G‘IN SHAROITDA BOLALARDA ORTIQCHA VAZN VA SEMIZLIK KASALLIKLARINING TARQALISHINI O‘RGANISH VA PROFILAKTIKA ISHLARI SIFATINI OSHIRISH

Raxmatova M.M., Nazarova G.U., Boyqo’ziyeva M.B.

Andijon davlat tibbiyot instituti

Andijon, O’zbekiston

**Kirish.** Statistika ma’lumotlariga ko’ra, jahoning barcha mamlakatlari singari Respublikamiz hududida ham keyingi yillarda bolalar o‘rtasida vazn ortishi oldi kasalliklari salmoqli o‘rin egallamoqda.

Bolalik semizligi kattalarda semizlik, erta o‘lim va nogironlik ehtimolini oshiradi, semiz bolalar ham nafas qisilishini boshdan kechiradilar, ular sinish, gipertoniya, yurak-qon tomir kasalliklari, insulin qarshiligi xavfi ortadi, ular psixologik muammolarni boshdan kechirishi mumkin.

**Tadqiqot maqsadi:** Biriktirilgan xuddudda yashovchi bolalar 2022 yil oktyabr – yanvar oylari davomida bolalarda ortiqcha vazn va semizlikni erta aniqlash, ularga to‘g‘ri maslahat berish, vaqtida davolash uchun, kuzatilishi mumkin bo‘lgan asoratlarni oldini olish. Vazifalar:

- 1.2 oylikdan-5 yoshgacha bolalar o‘rtasida skrining o‘tkazish ishlarini sifatini yaxshilash.
2. 2oylikdan-5 yoshgacha bolalar o‘rtasida kasalliklarini o‘rganib chiqish.
3. Bolalar o‘rtasida profilaktik ko‘rik sifatini oshirish.
4. Dispanserizatsiya sifatini yaxshilash.

5. Ortiqcha vazn va semizlikni kasalliklari aniqlangan bolalarga profilaktik yordam sifatini oshirish.

Uslublar: Ortiqcha vazn va semizlikni kasalliklarini ildizini JSST tomonidan qabul qilingan bolalarning jismoniy rivojlanishining standart ko‘rsatkichlariga solib aniqlash, skrining yo‘li bilan kasallik holatlarini erta aniqlash, savolnomalar orqali onalarning kasallik to‘g‘risida bilimlarini baholash.

**Tadqiqot natijalari:** Tekshiruv Shaxrixon tuman KTMP 3 filiali xududida o‘tkazildi. 2 oylikdan-5 yoshgacha bolalar o‘rtasida. 2022 yil oktyabr – yanvar oyigacha 2 oylikdan-5 yoshgacha bolalar (154ta) o‘rtasida ortiqcha vazn va semizlik kasalliklariga skrining tekshiruvi sifatida bo‘y/uzunlik va vazni o‘lchandi TBI aniqlandi va osish va rivojlanish korsatkich jadvaliga solib chiqildi. ortiqcha vazn va semizlik kasalliklari xolati quyidagicha bo‘ldi: Ortiqcha vazni bor 54, semizlik 2 ta. Ortiqcha vazni bor 7ta bolalarning onalariga (12%) ko‘krak suti oziqlantirish bo‘yicha maslahat berildi, 45 tasi (83%) bolalarning onalariga bolaga noto‘g‘ri qo‘srimcha ovqat berishni mohiyati, bolada jismoniy faollik kamligi to‘g‘risida tushuncha berildi va kuzatuvga olindi va kuzatish davom etmoqda. 2 ta bola muttahasis maslahatiga yuborildi. Jami bolalar «D» nazoratiga olinib, kuzatish ishlari olab borildi, zarur deb topilganlari semizligi bor bolalar endokrinolog ko‘rigiga yuborildi. Onalar o‘rtasida tushintirish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, tushintirish ishlari qanday ko‘rinishda bo‘lmasin to‘xtovsiz olib borishni taqozo qiladi.

**Xulosa.** 1. Bolalar o‘rtasida reja bo‘yicha tekshiruv har doim o‘tkazilishi kerak. 2. Bolalarda aniqlangan ortiqcha vazh havfi va ortiqcha vazn, semizlik kasalliklari oila shifokori nazorati ostida oilaviy poliklinika OSh tomonidan maslahat berish va davolanishi kerak. 3. Onalar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijasida bolalarda aniqlangan ortiqcha vazh havfi va ortiqcha vazn, semizlik kasalliklari to‘g‘risida boxabarlik ortib boradi.